

## **Tilshunoslikda lingvokulturologiya sohasining rivojlanishi**

*Abdullayeva Poshshajon Usmon qizi*

*Ma'mun universiteti, "Roman-german filologiyasi" kafedrasi o'qituvchisi*

*Rustamova Indira Davronbek qizi*

*Ma'mun universiteti, Filologiya va tillarni o'qitish: ingliz tili yo'nalishi talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada lingvokulturologiya fanining yuzaga kelishi, rivojlanish bosqichlari va boshqa fanlar bilan o'zaro aloqadorliklari haqida ma'lumot keltirilgan bo'lib, ushbu sohaning hozirgi davrdagi ahamiyati keng yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** madaniyat, lingvokulturologiya, etnolingvistika, psixolingvistika, lingvomamlakatshunoslik, moddiy va ma'naviy madaniyat.

**Abstract:** This article provides information about the emergence of the science of linguoculturology, its development stages, and its interrelationships with other sciences, and the importance of this field at the present time is widely explained.

**Key words:** culture, linguoculturology, ethnolinguistics, psycholinguistics, linguo-national studies, material and spiritual culture.

**Аннотация:** В данной статье приводятся сведения о возникновении науки лингвокультурологии, этапах ее развития, взаимосвязях с другими науками, а также широко объясняется значение этой области в настоящее время.

**Ключевые слова:** культура, лингвокультурология, этнолингвистика, психоллингвистика, лингвонациональное изучение, материальная и духовная культура.

Lingvokulturologiya sohasi tilshunoslikda shiddat bilan rivojlanayotgan zamonaviy sohalardan biri hisoblanadi. Ushbu yo'nalishning yuzaga kelishi tilshunoslik va madaniyatshunoslik fanlari bilan bog'liq. Dastlab madaniyat so'ziga ta'rif beradigan bo'lsak, ushbu tushuncha ma'lum bir xalq yoki millatning urf-odatlari, an'analari va qadriyatlarining aksi deb tasvirlash mumkin. Madaniyat so'ziga turli olimlar har xil ta'rif berganlar. Ularning barchasini umumlashtiradigan bo'lsak, "Madaniyatga butun tarixiy taraqqiyot jarayonida insoniyat tomonidan yaratilgan va yaratilayotgan barcha moddiy va ma'naviy boyliklar yig'indisi" deb ta'rif berish mumkin.<sup>1</sup> "Lingvokulturologiya" atamasidagi "kultura" ya'ni

<sup>1</sup> Komilova Gulmira Temirovna. Lingvokulturologiya yangi soha sifatida.- "Экономика и социум" №12(91) 2021

“madaniyat” so‘zi lotincha “*colere*” so‘zidan olingan bo‘lib, “*ishlov berish, tarbiyalash, rivojlanish, hurmat qilish*” degan ma‘nolarni anglatadi. Hozirda madaniyat so‘zining juda ko‘p ma‘nolari mavjud. Shunga asosan madaniyatning ikki turini farqlash mumkin: moddiy va ma‘naviy madaniyat. Moddiy madaniyat insonning yashash faoliyati davomida paydo bo‘ladigan ehtiyojlarini o‘z ichiga oladi. Ma‘naviy madaniyatning ko‘plab shakllari mavjud bo‘lib, u ilmiy, ijtimoiy, falsafiy, diniy, huquqiy, axloqiy, ta‘limiy va tarbiyaviy turlarni qamrab oladi. Shu tufayli madaniyatning ushbu ikkita turi (moddiy madaniyat va ma‘naviy madaniyat) bir-biri bilan chambarchas bog‘liqdir.

Lingvokulturologiya ya‘ni lingvomadaniyatshunoslik fani XX asrning 90-yillarida yuzaga kelgan fan bo‘lib, u tilshunoslik va madaniyatshunoslik fanlarining jiplashuvi natijasida paydo bo‘ldi. Bu sohaning asosiy predmetlari til va madaniyat hisoblanadi. Agar madaniyatshunoslik insonning tarix, hayot, tabiat va ijtimoiy sohalardagi xususiyatlarini o‘rgansa, tilshunoslik tilda insonning dunyoqarashini o‘rganadi. Ushbu atama lotincha “*lingua*”- til, “*cultura*”- *ishlov berish* va yunoncha “*logos*”- *fan, ta‘limot* so‘zlaridan olingan bo‘lib, til va madaniyatning uzviy aloqadorligini, uning shakllanishi va rivojlanishini o‘zida aks ettirgan hodisalar – til va madaniyatni birgalikda o‘rganadigan alohida ilmiy soha sanaladi. U madaniyatshunoslik va tilshunoslik fanlari o‘rtasida yuzaga kelgan umumlashma fan bo‘lib, til va madaniyatning o‘zaro ta‘siri va bog‘liqligi, bu bog‘liqlikning shakllanishi hamda yaxlit bir sistema sifatida til va tildan tashqarida aks etishi kabi hodisalarni o‘rganish bilan shug‘ullanadi. Bir tomondan lingvokulturologiya insoniyatning madaniy til faktoridagi o‘rni, ikkinchi tomondan esa, til faktoridagi insonning o‘rnini o‘rganadi.

“Lingvokulturologiya” atamasi dastlab frazeologik maktab asoschisi V.N. Teliya va V.V. Vorobyov, V.A. Maslova va boshqalarning ishlarida ko‘rindi. Ushbu sohaning shakllanishi haqida fikr yuritilganda, deyarli barcha tadqiqotchilar bu nazariyaning ildizi V.F. Gumboldtga borib taqalishini ta‘kidlaydilar<sup>2</sup>. Ushbu adabiyotlarda bu sohaning rivojlanishida A.A. Potebnya, L. Vaysgerber, X. Glins, X. Xols, D. Uitni, D.U. Pauell, F. Boas, E. Sepir, B.L. Uorf, G. Brutyan, A. Vejbiskaya, D. Xaymz kabi mashhur tilshunoslarning fikrlari alohida ahamiyatga ega ekanligi ta‘kidlanadi<sup>3</sup>. Turli xil nazariyalarga asosan til nafaqat madaniyat bilan bog‘liq, balki u o‘zida

<sup>2</sup> Nurmonov A. Ovrupoda umumiy va qiyosiy tilshunoslikning maydonga kelishi. Nurmonov A. Tanlangan asarlar. 2- jildlik.-Toshkent: Akademyashr, 2012. - B.23-40.

<sup>3</sup> Маслова В.В. Лингвокультурология в системе гуманитарного знания / Критика и семиотика.- М., 1987.Стр 69-70

madaniyatning taraqqiy etishini ham ifodalashydi. Shu kabi ko‘plab g‘oyalar asosida XX asrning oxirlariga kelib, yangi soha tilshunoslik va madaniyatshunoslik fanlari negizida lingvokulturologiya maxsus soha sifatida shakllandi.

Mazkur sohaning rivojlanishi o‘zining muayyan bosqichlariga ega. Lingvokulturologiya sohasida jiddiy tadqiqotlar olib borgan V.V. Maslova ushbu sohaning taraqqiy etishini 3 bosqichga bo‘ladi:

- 1) fan shakllanishiga sabab bo‘lgan dastlabki tadqiqotlarning yaratilishi (V.fon Gumboldt, E. Benvenist, L. Vaysgerber, A.A. Potebnya, A. Sepir kabi tilshunoslarning ishlari);
- 2) lingvokulturologiyaning alohida soha sifatida ajratilishi;
- 3) lingvokulturologiyaning rivojlanish bosqichi<sup>4</sup>.

Lingvokulturologiya bugungi kunda bir necha yo‘nalishlarda namoyon bo‘ladi:

1. Lingvokulturologiya yorqin madaniy munosabatlarni, lingvomadaniy holatlarni, ilmiy izlanishlarni o‘z ichiga oladigan alohida sotsial guruh.
2. Diaxronik lingvokulturologiya. Lingvomadaniyatning etnos holatidagi aniq o‘tish vaqtining o‘zgarishlarini o‘rganadi.
3. Qiyosiy lingvokulturologiya. Lingvomadaniyatda paydo bo‘ladigan turli xil etnoslarning ikki tomonlama qiyoslash bilan shug‘ullanadi.
4. Tavsifiy lingvokulturologiya. Bu sohada amalga oshirilayotgan ishlar unchalik ko‘p emas. Ular orasida M.K. Golovanivskaning “Rus tilida so‘zlashuvchilar nuqtai nazarida fransuz mentaliteti” nomli ishi katta ahamiyatga ega. Ishning obyeksi sifatida rus va fransuz tillaridagi abstrakt tushunchalar: taqdir, xavf, omad, qalb, ong, tafakkur, g‘oya va boshqalar o‘rganiladi.
5. Lingvokulturologik leksikografiya. Lingvoo‘lkashunoslik lug‘atlarini tuzish bilan asosiy vazifasi hisoblanadi.

Lingvokulturologiyaning asosiy maqsadlaridan biri shuki, madaniyat, xalq tafakkuri, uning olamni idrok etishida o‘ziga xos jihatlarining tilda aks etishini o‘rganishdan iborat.

Hayotimiz davomida til va madaniyat shaxsiyatimizga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Madaniyat boshqa insonlar bilan qanday munosabatda bo‘lishni aytib, e’tiqod va axloqni shakllantiradi. Bundan tashqari, bu shaxsning jamiyatga tegishlilik tuyg‘usini kuchaytiradi. Boshqa tomondan, til o‘z madaniyatingizga muloqot qilish imkonini beradigan manbadir. Aslida til madaniy g‘oyalar va e’tiqodlarni yetkazish

---

<sup>4</sup> Маслова В.А. Лингвикокультурология. -М: Академия, 2001. Стр 53

uchun xizmat qiladi. Shuningdek, madaniyat ham, til ham tarixga nazar tashlash imkonini va fikrlarimizni shakllantirishga yordam beradi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, XIX asrda V. Gumboltning til va tafakkur munosabatlarini o‘rganishda millat madaniyatiga asosiy e‘tibor berilishi lozimligi haqida mulohazalari XX asrning 90-yillarida ko‘plab tilshunoslar tomonidan yangi fan ya’ni lingvokulturologiyaning yuzaga kelishiga sabab bo‘ldi. Ushbu fan hozirgi zamon tilshunosligida tez sur‘atlarda rivojlanib, umumiy tilshunoslikda alohida o‘rin egalladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Komilova Gulmira Temirovna. Lingvokulturologiya yangi soha sifatida- “Экономика и социум” №12(91) 2021
2. Nurmonov A. Ovrupoda umumiy va qiyosiy tilshunoslikning maydonga kelishi. Nurmonov A. Tanlangan asarlar. 2- jildlik. - Toshkent: Akademnashr, 2012. - B.23-40.
3. Маслова В.В. Лингвокультурология в системе гуманитарного знания / Критика и семиотика. - М., 1987. Стр. 69-70
4. Маслова В.А. Лингвокультурология. -М: Академия, 2001. Стр 53
5. Nursulton Shayxislamov, “Lingvokulturologiyaning fan sifatida shakllanishi va rivojlanish bosqichlari”, academic research in educational sciences volume 2 | issue 1 | 2021
6. Vorobyev V.V. Lingvokulturologiya. Teoriya i metodi. –М., 1997.